

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Рамаатов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Қаллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Рахимова Гузал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, з.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тулаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қурбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эичанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Пазилев Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (112), Хора
Маъмун академияси, 2024 й. – 278 б. – Босма нашрнинг электрон варианты
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хора
Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages	6
Abduvahobova M.A. Ingliz va o'zbek folklor diskursida genderlikning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	9
Absamatova G.B. Surdo tarjima sinxron tarjimaning noverbal shakli sifatida	13
Aminova N.I. Shukur Xolmirzayevning "Ko'k dengiz" hikoyasida inson ma'naviy dunyosi tahlili	16
Ataboyev I. Ta'na-dashnom nutq strategiyasi muvaffaqiyatining ekstralingvistik shartlari	19
Bakayeva M.K., Astanova H.Z. The artistic modeling of personality in dreiser's works: capturing motives and assessing characters	23
Bazarova X.E. Jamol Kamol she'riyatida so'z jilosi	29
Bekova N., Achilova D.F. Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy hayoti va adabiy merosi haqida	32
Boymatova D.B. Maqollarda muqobilsiz leksikaning ishlatilishi	35
Erkinov S.E., Saidova M.A. Unlocking global communication: the art and impact of simultaneous translation	37
Fayziyeva A.A., Raximova S.I. Ingliz tiliga xos konseptual metaforalar tahlili	40
Gadoeva M.I., Chullieva M. The old man and the sea, the battle of life for all human kind	42
Gadoeva M.I., Ibragimova M. Linguocultural analysis of imperative mood in uzbek and english	45
Gadoeva M.I., Mirzaeva M.Z. Expressing desire through lexical items in english and uzbek languages	47
Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida quyosh timsoli	50
Jo'rayev Sh.B. Tilshunoslikda o'zlashmalarning tasniflanishi	52
Karimova Sh. Modernizm yo'lidagi izlanishlar	55
Khayatova Z.M. Unveiling the language secrets: paraphrasing uzbek texts with software	60
Khodjaeva D.I., Ergasheva M.B. About the branch of onomastics that studies celestial objects	63
Kobilova N.S. Common features of a good language learner	65
Madraximova I.B. Shavkat Rahmon she'riyatida tun xronotopi	68
Mamarajabova I.F. "Vaqt" konseptini ifodalovchi birliklarning xususiyatlari	71
Maxsudova N.A. Konseptlarning leksikografik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari	73
Mirzaboyeva N.M. Nemis va o'zbek maqollarida ismlar	78
Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli va uning g'oyaviy-falsafiy talqini	81
Muqimova Z.R. Tabiat hodisalarini atovchi nomlarning lingvomadaniy xususiyati	83
Muratova G. G'afur G'ulom hikoyalarida qahramon xarakteri tasviridagi rang-baranglik	87
Murodjonova L.F. The ratio of non-verbal and verbal paralinguistic tools used in speech activity	90
Muxtoraliyev B.I. Anvar Obidjonning badiiy mahorati	93
Navruzova N.X. The position of connotative meaning in the semantic structure of a word	96
Niyazova M.X., Tuxtayeva M.A. Tog'ay Murodning asar personajlari nutqida maqol qo'llash mahorati	99
Norboyev O'.S. "Asil va Karam" dostonining shakllanishidagi ilk manbalar va uning yozuvga ko'chishi	102
Norboyev O'.S. "Asil va Karam" dostonining og'zaki versiyalari	105
Nuriddinova N.B. Poetic features of Stephen King's works	107
Ochilova H.A. So'roq gap va uning turlari haqida	111
Oripova G.M. Abduvali Qutbiddinning qofiya qo'llash san'ati	115

O'lsam kafanimdir jismimda qaro... [111-bet] misralarini o'qir ekansiz, shoir salobatini his etasiz, boy ruhiyatiga tahsin o'qiysiz, ham ona tiliga mehringiz ortadi. Shoir ta'kidlagani kabi "yalang'och" bo'lib qolish xavfidan o'zingizni ozod etasiz. "Tiling ko'ngilning tarjimoni bo'lsin", deydi buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur pir-u komil Xoja Ahror valiy tilidan "Risolai volidiyya" asarida. Jamol Kamol she'rlari ham "ko'ngilning go'zal tarjimoni" bo'lib sohibining siyratini, botinini to'kib-sochadi. So'zning qudrati shunchalikki, Rumiylar hazratlari qo'lingga nay tutqazib:

Tingla naydin, ne hikoyatlar qilur,

Ayriliqlardan shikoyatlar qilur [4], deya oshiq ko'ngillarga ishq navosidan roz aytadilar. Go'yo oshiq dard-u hasrati nay navosi bilan qalblarning tub-tubida aks-sado beradi. Rumiylar "nay"i shu tariqa ajdodlardan avlodlarga o'tib kelaveradi. Shu taxlit ijod ahli millionlab ko'ngillarda so'zga, tilga sayqal berib, mehr-u muhabbat uyg'otadilar yoki millionlab qablarda jo'sh urgan tug'yonning tarjimoni sifatida dil dardlarini oshkor etaveradilar. Jamol Kamol she'rlari ham ana shunday betakror "tarjima" mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkin Vohidov, So'z latofati. Toshkent. "O'zbekiston" 2014-yil, 9-bet
2. Jamol Kamol, Asr bilan vidolashuv. Saylanma. She'rlar va dostonlar, 1-jild. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi akademiyasi "Fan", 2007-yil 19-bet
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2006-yil. 5-tom 585-bet
4. Jabliddin Rumiylar. Masnaviy hikoyalari sharhlar. Naynoma. Masnaviy hikmatlari. "Muharrir" nashriyoti. T. 276-bet.
5. Berdak Yusuf, Mumtoz adabiy asarlar lug'ati, "Sharq" T.: 2010.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur, "Risolai volidiyya" nazmiy tarjimai va sharhi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. T. 2014-yil. 385-bet.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 72-bet
8. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent. "Yulduzcha". 1990. 94-bet

UO'K 808.5

ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE'MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI HAQIDA

N.Bekova, DSc, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

D.F.Achilova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi, Buxoro tuman 26-maktab, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrda yashagan Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo shayx Sabboq Buxoriy hayotiy faoliyati va ijodiy merosiga doir ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Sabboq Buxoriy, Saudiya Arabistoni, tazkira, shayx, madrasa, nodir kitoblar, qo'lyozma, hijrat, g'azal.

Аннотация. В данной статье собраны сведения о жизненной деятельности и творческом наследии Абдулкадира Кароматуллы ибн Нематуллы шейха Саббага Бухари, жившего в XX веке.

Ключевые слова: Саббаг Бухари, Саудовская Аравия, тазкира, шейх, медресе, редкие книги, рукопись, хиджрат, газаль.

Abstract. This article contains information about the life activity and creative heritage of Abdulkadir Karomatullah ibn Nematullah Sheikh Sabbag Bukhari, who lived in the 20th century.

Keywords: Sabbagh Bukhari, Saudi Arabia, tazkirah, sheikh, madrasa, rare books, manuscript, hijra, ghazal.

Saudiya Arabistoniga o'zbeklarning ko'chib o'tishi XX asr 50-60-yillarida keng tus oldi. Bu davlatning Makka, Madina, Axbo, Toior, Robig' kabi shaharlari bo'ylab tarqalib ketgan o'zbeklarning barchasi O'zbekistonning qaysi viloyati yoxud shahridan kelib chiqqan bo'lmasin o'zlarini bitta nom bilan, ya'ni „Buxoriy“, yoxud „Turkistoniy“ deb atashlari taomilga kirgandi. Butun XX asrda va XXI asr boshlarida Saudiyadagi o'zbeklarning to'rtta avlod almashinuvi yuz berdi. Birinchi avlod vakillari XX asr 20-30-yillarida Arabistonga borib qolganlar bo'lib, ular hozir

hayotdan ko'z yumishgan. Keyingi ikki avlod (3-4- avlod) Arabistonda dunyoga keldi va voyaga yetdi. Ular ajdodlar yurtidan uzoqda dunyoga kelganligi, ota-bobolari zamini O'zbekistonni ular hikoya orqali bilishlari ayni haqiqat. „Buxoriylar“ning keyingi avlodlari orasida „arablashuv“, „forslashuv“ jarayonlari kechganligini ham inkor qilib bo'lmaydi. „Buxoriylar“ning birinchi avlodlari orasida Vatan hajrida yashab o'tgan olimu-fuzalolar kam sonli emasdi. Bundaylardan Sayyid Mahmud Taroziy Oltinxon To'ra, Sayyid Mubashirxon Taroziy, sayyid Qosim domlo Andijoniy, Muhammad Yunus Namangoniy, Muhammad Muso o'g'li Turkistoniy kabilarni sanab o'tish mumkin. Shunday ulamo va fuzalolardan biri, asli buxorolik Shayx Abduqodir Karomatullo Buxoriy Sabboqdir.

Shayx Sabboq Buxoriy 1903-yilda (ba'zi manbalarda 1909) Buxoroda yirik diniy ulamo oilasida tavallud topgan. Oilaviy muhit tufayli padari buzrukvoridan ilk boshlang'ich diniy ta'limni olgan. 12 yoshidan boshlab madrasaga qatnay boshlagan. Ushbu inson zamonasining mashhur ulamolaridan Asadullo Mahdumga shogird tushgan.

1931-yilda Abdulqodir Karomatullo va ustoz A. Mahdum Amudaryodan gufsadlarda (yasama qayiqalarda) bir amallab qo'shni Afg'oniston davlati hududiga o'tib ketdilar. Ular dastlab ushbu mamlakatning Qunduz shahrida istiqomat qilishib, tirikchilik ilinjida ko'pgina mashg'ulotlar bilan shug'ullanishgan. 1935-yilda Abdulqodirning ustoz vafot etdi. U kishining o'limidan so'ng Shayx Sabboqning yangidan muhojirlik davri boshlandi. Buxoriy Eron, Iroqda yashadi, Bag'dod oliy madrasasida ikki yil diniy ta'lim olgan. 1938- yilda yurtdoshlaridan biriga ergashib Saudiya Arabistoniga kelib qolgan va Makkadagi „Madrasai oliya“ lardan biriga joylashgan. Diniy ilmlarni puxta egallagan Sabboq 1941-yili Axbo shahriga ko'chib o'tadi va arabcha maktabga o'qituvchi bo'lib joylashadi. Besh yil bu yerda o'qituvchilik qilgach 1946-yili Qizil dengizga yaqin Robig' shahriga ko'chib o'tadi. Robig' shahriga ko'chib o'tgach, bu shaharda muqim yashab qolgan shoir, 43 yoshida arab qizlaridan biriga uylanadi. Shayx Sabboq Buxoriy 54 yil ushbu shaharda yashadi. 97 yildan ortiq umr ko'rgan ulamo o'z hayoti davomida qori, olim, adib, shoir, xushxulq inson sifatida o'zidan yaxshi nom qoldirdi. Olimning ikki o'g'li va uch qizi dunyoga kelib, o'g'illari davlat korxonalarida, qizlari arab mamlakatlarida muallima bo'lib faoliyat yuritishmoqda. Shayx Sabboq Robig' shahridagi markaziy masjidida 50 yil imomlik qilgan. Yurish qobiliyati yo'qolib, 90 yoshdan oshgandan keyin, shoir uyida ilmiy va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lgan. Shoir 1991-yilda ajdodlari yurti Buxoroga tashrif buyurib, amakivachchalari Quadratullo, Inoyatullo, Hidoyatullo va Rahmatullolar bilan yuz ko'rishdi, Vatan tuprog'ini tavof qildi. O'zi bilan birga „Sabboqi Buxoriy g'azallari“ she'riy to'plamini (fors-tojik tilida) olib kelganligi esa yaxshi tuhfa bo'ldi. Ushbu she'riy to'plamdan ayrim she'rlar filolog olimlarimizdan Samad Azimov va marhum Sadridin Salim Buxoriylar tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, mahalliy matbuotda e'lon qilindi. Shayx Sabboq Buxoriy g'azallari asosan arab, fors, o'zbek tilida yaratilgan bo'lib, ularda Vatanga muhabbat, ona-yurt sog'inchi, insoniylik, ilm-ma'rifat g'oyalari tarannum etiladi. Shayx Sabboq Buxoriyning shaxsiy kutubxonasi bo'lib, unda uning 7 ming dona nodir kitoblar saqlangan. Olim O'zbekiston musulmonlari idorasi orqali Buxorodagi „Mir Arab“ islom o'quv yurtiga yetti sandiq kitob topshirdi. Buxoroga yuborilgan kitoblar orasida Mir Isomiddin Roshidiyning „Shuaro'i Kashmir“ nomli 6 jildli asari va „Tazkirai majmuai shuaro Jahongir shoh“ asarlari eng noyob kitoblardir. Shuningdek, 1905-1907-yillarda rus-yapon urushi haqida turk tilida uch tomlik kitobning Buxoroga olib kelinishi e'tiborga loyiqdir. Abduqodir Karomatullo Buxoriy 95-97 yoshiga qadar o'rnidan turib yura olmasada, emaklab borib kerakli kitobni javonidan olar va undan foydalanib bo'lganidan so'ng esa, erinmay o'z o'rniga eltib qo'yardi. Uning ma'naviy jasorati tahsinga sazovor bo'lib, bugungi avlod uchun o'mak olarlidir. 97 yoshdan ortiq umr ko'rgan Shayx Sabboq Buxoriy so'nggi nafasigacha Vatan mehri va yodi bilan yashadi. Zeroki, inson uchun o'z vatanida yashashdan ziyoda baxt bo'lmasa kerakligini vatanidan olisda umr-guzaronlik qilgan insonlardek hech kim hech qachon his qilolmaydi.

Jonkuyar va fidoyi shoir Sadridin Salim Buxoriy Sabboq Buxoriy haqida qator ma'lumotlarni keltirib o'tibgina qolmay, balki uning ijodidan ham ayrim g'azallarni o'zbek tiliga tabdil qilib adabiyotimizni yana bir noyob durdona satrlar bilan boyitdi. Quyida Sabboq Buxoriy tazkirasidan joy olgan g'azalga ko'z tashlasak ham uning haqiqiy adabiyot ixlosmandi ekanligiga amin bo'lamiz. Dil chi bandi dar chahon, doni, ki in dunparvar ast,

Har ki bo o' shud muqayyad , doimo dars sar ast!
 To'shae paydo kun, ki andar pesh dori raxi saxt,
 Meravi bo hasrate, xishti lahad zari sar ast!
 Bar murodi xesh kamtar rav, ki in domi balost,
 Nomurodi behtar az toji shohi Qaysar ast!
 G'ulg'uli table chahondori, ki shahro bar dar ast,
 Mekunad ogoh, ki, xon, navbat baroyi digar ast!..

Buxoroliklar bir onaning ikki ko'krigidan bab-baravar bahramand, ikki ulkan xazina sohibi, ikki daryo suvidan serob, ikki buyuk xazina merosxo'ri, ya'ni o'zbek va tojik tili egasidirlar. Bu zamin bizga ne-ne buyuk zotlarni in'om etgan. Ulardan biri hayoti va ijodi juda kam o'rganilgan, XX asrda yashagan Abdulqodir Karomatulloh ibn Ne'matulloh shayx Sabboq Buxoriydir. Garchi oz muddat Buxoroda yashab, keyinchalik Saudiya Arabistoniga hijrat qilib, umrining so'ngiga qadar o'sha yerda hayot kechirgan bo'lsa-da Sabboq Buxoriy ona tilini, vatanini umrining so'ngiga qadar unutmadi. Bu haqida ustoz Sadridin Salim Buxoriy shunday xotirlaydi „Yaqinda oltmish yillik hijratdan so'ng Buxoroyi sharifga shoir Shayx Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy mehmon bo'ldilar”, „Siz qaysi millatga mansub?”-deb so'raganlarga u kishi: „Men Ibrohim Xalilulloh millatiga mansub bo'lib, turkiy, forsiy, arabiy tillar egasiman” , — deb javob berdilar. Shundan ham bilsa bo'ladiki, ustod ham turkey, ham forsiy tillarda benazir ijod qila olganlar.

Quyida Sabboq Buxoriyning „Kokuli xushbo” nomli forsiy she'ri shoirning ajoyib zullisonayn ijodkor bo'la olganligini dalillaydi:

Nozanino, chi shavad bo'sa zaman ro'yatro,
 Pasi gardan fikanam kokuli xushbo'yatro,
 Oy, to sulh kunam g'amzayi xunrezi turo,
 Rom sozam digar on nargizi ohuyatro,
 Gulshani orazi tu channati ma'no doram,
 Havzi Kavsar shumoram la'li suhango'yatro,
 La'li ohangbaxhi tu e'chozi Masiho xonam
 Qiblai tavsir namoyam xami abro'yatro
 Kay buvad hamchu qaboe sanami humajod,
 Ba bag'al tang kasham qomati dilcho'yatro
 Dar rahm vasli tu Sabboq zi sar meguzarad
 Nanihad az sari xud hech hayoho'yatro.

Aziz kitobxonlar diqqatiga keyingi ma'lum qilinadigan o'zbekcha she'r ustod Sabboq Buxoriyning turkiy tilda ham jozibador ijod namunalarini bitganligiga yana bir asos bo'ladi. Ushbu she'rni arab imlosidan ustoz Samad Azimov o'giran:

Sabo arzim eshit payg'ambarimni gulyora yetkurgil
 Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruksora yetkurgil
 Kel ey ko'ngul muhabbatda vaho ahlig'a lohiq bo'l
 Agar vasl istasang doim talab yo'linda sodiq bo'l
 Havoyi nafsdir o'tgil ko'ngillarda muvofiq bo'l
 Talosh etma umura yorni vaslig'a loyiq bo'l ...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayfiddin Jalilov. Buxoriylar qissasi (Muhojirat tarixidan lavhalar). "Toshkent islom universiteti" nashriyoti. T. - 2006. – B. 151-153
2. Salmonov A.M. O'zbekitonda xudosizlik uchun kurash\\ FarDU, Xabarlar; 2001. – B. 67-71.
3. Sadridin Salim Buxoriy. Maqola. Buxoroi sharif. 2001-yil fevral soni
4. Samad Azimov. Buxoroyi sharif ziyolilarining mustaqil nashri. 1992-yil yanvar
5. Internet manbalari
6. Susambil. 1992yil. yanvar. N.3.
7. Susambil. 1991yil. N2
8. Buxoroyi SHarif 2001. 17-fevral
9. Buxoroyi Sharif 2000 2-dekabr.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАҢЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ

№3/4 (112)
2024 й., март

Ўзбекча матн муҳаррири:
Русча матн муҳаррири:
Инглизча матн муҳаррири:
Мусахҳиҳ:
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод
Ҳасанов Шодлик
Хамраев Нурбек, Ламерс Жон
Ўрозбоев Абдулла
Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 05.03.2024
Босишга рухсат этилди: 15.03.2024.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 17,4 б.т. Буюртма: № 3-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru
 (+998) 97-458-28-18